

PEDAGOGLARDA O‘ZINI BOSHQARISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Masharipova Shohida Ro‘zmetbayevna

Xorazm viloyati Xiva shahar 2-son maktab psixologi

Annotatsiya: O‘qituvchi yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi insondir. O‘qituvchida o‘qituvchilik kasbiga xos layoqat, qobiliyat bo‘lmog‘i darkor. Avvalo u bolalarni sevishi, ijodkor, ishbilarmon bo‘lishi, ma’naviy barkamol bo‘lishi, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan bo‘lishi lozim.

Kalit so‘zlar: *Pedagogik ijodkorlik, pedagogik mahorati, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, tarbiyaviy jarayon, didaktik jarayon, metodik bilim, mahorat, ruhiyat, tajriba.*

KIRISH

O‘qituvchi o‘quvchilarga ta’lim - tarbiya berar ekan, avvalo, uning o‘zida tarbiyaviy hislatlar tarkib topgan bo‘lishi darkor. O‘qituvchi odobli bo‘lishi kerak. Uning odobi, madaniyati yuksak bo‘lsagina, odamlarga nisbatan mehribon, sahovatli bo‘la oladi, uni hamma hurmat qiladi. Buning uchun ochiq ko‘ngil, qat’iy bo‘lishi, o‘zini tuta bilishi, bardoshli bo‘lishi kerak. Bolalarga nisbatan talabchan bo‘lish bilan birga o‘z shaxsiga tanqidiy nuqtai nazardan qaray olishi kerak. Bu ahloqiy e’tiqod o‘qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, o‘quvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatlarda, muomalasida, kundalik turmushda o‘zining shaxsiy namunasi bilan ahloqiy ta’sir o‘tkazishda ko‘zga tashlanadi. Muallim ahloqining natijalari uning yoshlarga ahloqiy ta’sirining samaradorligida namoyon bo‘ladi. Shaxs axloqining xarakterlaydigan belgilaridan biri ma’suliyatdir. O‘qituvchining ma’suliyati - ma’suliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta’lim — tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi zimmasiga bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish ma’suliyati yuklanadi. Pedagogik odobga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘quvchilar orasida obro‘ qozanadi.

O‘qituvchi qanchalik ko‘proq obro‘ qozonsa, ta’lim va tarbiya mohiyatan shunchalik muvaffaqiyatliroq bo‘ladi.

O‘qituvchining asosiy maqsadi hamma o‘quvchilarning muvaffaqiyatli o‘qishiga erishishidir. Buning uchun o‘quvchilardan o‘z ustida ishlashi, o‘z - o‘zini tarbiyalashi talab etiladi.

O‘z - o‘zini tarbiyalash o‘z faoliyatini tahlil qilishdan va o‘z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O‘quvchilarda shu hislatga ehtiyoj paydo bo‘lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo‘ladi.

O‘z - o‘zini tarbiyalash o‘quvchilarning o‘zini - o‘zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqini shakllantirishning ta’sirchan vositasidir.

O‘quvchilar o‘qishda, tarbiyada, dam olishda o‘zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o‘z - o‘zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O‘z - o‘zini tarbiyalash sifatleri bola bunga tayyor bo‘lganda, u o‘zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko‘rsata boshlagan vaqtda paydo bo‘ladi. O‘z - o‘zini tarbiyalashda maslahat va ko‘rsatmalar berilishi lozim. Bunda o‘quvchilarni o‘zlariga, hatti - harakatlarini tanqidiy ruhda munosabatda bo‘lishga o‘rgatish juda muhimdir.

O‘qituvchi mehnatda, xulq - atvorda tirishqoqlik qilib, o‘z imkoniyatlarini ishga solishi, o‘ziga majburiyat olishi, o‘zini nazorat qilishi, o‘ziga - o‘zi hisob berishi, o‘ziga o‘zi baho berishi singari o‘z - o‘zini tarbiyalashning elementlarini shakllantirib borishi lozim. O‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyatida qanday qiyinchiliklarga duch keladi?

Ulardan biri, masalan, mehnatga va uzluksiz ta’limga tayyorgarlikni shakllantirish va o‘qituvchilarning rivojlanish istiqbollari ko‘ra bilish kabi umumiy tarbiyaviy vazifalarni qo‘yishni bilmaslik bilan bog‘liqdir.

O‘z shaxsiy faoliyatini tahlil qilish va baholash o‘qituvchilar uchun eng katta qiyinchilik tug‘diradi. Ba’zan, hatto o‘z ishini umumiy nazariy asoslarini bilgan holda o‘qituvchi vaziyatning ichki psixologik ma’nosini va shuning uchun uni amaliy jihatdan boshqara olmaydi. Yoki o‘qituvchi o‘zining pedagogik ta’siri natijasini oldindan ko‘ra bilmaydi, oldindan taxmin qila olmaydi va shuning uchun ham noto‘g‘ri pedagogik xulosalarga keladi. Boshqa hollarda u sodir bo‘gan vaziyatga o‘zini moslaydi va uni o‘zgartirmaydi. Eng katta qiyinchiliklardan biri shundan iboratki, o‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyatini bir butunlikda ko‘ra olmaydi, o‘z faoliyatining vazifalarini, vositalari va natijalari orasidagi aloqalarni e’tibordan chetda qoldiradi. Har bir o‘qituvchi o‘zi uchun qanday qiyinchiliklar xarakterli ekanligining bilishi va ana shu nuqtayi nazardan o‘z mehnatiga baho berishi muhimdir.

O‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O‘z - o‘zini baholash qiyin, lekin o‘quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o‘quvchi irodali bo‘lishi, o‘z burchini tushunishi, tahlil va tarbiya olish uchun sabablar bo‘lishiga intilishi lozim. O‘quvchilar o‘z - o‘zini tarbiyalash bilan birga o‘z ustida ishlab boradi. O‘z ustida ishlash asosan o‘spirinlikdan boshlanadi. Bunda ularning nazariy tafakkurini shakllantirish to‘garak va fakultativ mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga o‘quvchining badiiy asarlarni qo‘yishi va tushunishi orqali mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritishga va munozaraga o‘rganib boradi. Unda asta - sekin tabiat va jamiyat haqida o‘zining nuqtai nazari, e’tiqodi,

qarashi shakllanadi. Bu esa unda mustaqil o'ylashi, to'g'ri yo'l va xulosa chiqarishi, qat'iy qaror qila olish fazilatlarini o'stiradi.

Bola tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirishda yangi zamonaviy bilimlarni keng ko'lamli olib borilishi kerak.

Chunki bolaning bilish, yangiliklarni qabul qilish doirasi keng, undan to'g'ri samarali foydalanish esa o'qituvchilarning, tarbiyachilarning vazifasidir.

O'qituvchi pedagogik mahoratini oshirish uchun o'z - ustida ishlashi, tinmay izlanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borishi lozim. Yangi metodik mahorat, bu yangi pedagogik texnologiya deganidir. Pedagogik texnologiya pedagogik mahorat to'g'risidagi fan. Shunga ko'ra pedagogik texnologiyada o'qituvchining metodik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega:

O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurish o'qitishning axborot vositalaridan va didaktik materiallardan, ta'limning faol metodlaridan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

1. Mahoratli o'qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta'lim — tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada ma'lum vaqt ichida unga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qilishi mumkin bo'lsin.

2. O'qituvchi pedagogik tizimda belgilangan maqsadga to'g'ri keladigan o'quv — tarbiyaviy jarayon mazmunini o'quv dasturi bo'yicha chuqur qo'llashi, muntazam ravishda o'z pedagogik mahoratini ilmiy — texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda mustaqil ravishda kengaytirib borishi lozim.

“O'qituvchi o'z bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamog'i, mustaqil ishlashni o'rganmog'i lozim”, - degan edi Abduraxmon Jomiy.

O'z bilimlarini mustaqil oshirish uchun quyidagi bo'limlardan iborat individual reja tuzib olishlari tavsiya etiladi.

1. G'oyaviy — siyosiy saviyani oshirish.
2. Ilmiy — nazariy bilimni oshirish.
3. Metodik bilim va mahoratni oshirish.

O'qituvchining pedagogik mahoratini doimiy oshirib borish va uni rivojlantirishda maktabdagi metod birlashmalar hamda kabinetlarning xizmati katta. Metod birlashmalarda o'qituvchilar fikr almashadilar: o'zaro kuzatilgan darslar muhokama qilinadi. Yosh va tajribasiz o'qituvchilarga maslahatlar uyushtiriladi, ilg'or tajribalarni keng ommalashtiradilar.

- Pedagogik ijodkorlik manbayi — bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz

o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishni, o'quvchilarning ta'lim tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

- Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish vaqti va usullari, uslub va vositalaridir, Ular vositasida o'quv — tarbiyaviy ishlarda eng yuqori natijalarga erishiladi.

- Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv tarbiya jarayoniga sifatli o'zgarishlar kiritadi. O'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi.

Pedagogik mahoratni ilmiy - asosda tashkil etish mazmuni ancha keng tushuncha bo'lib, unga avvalo, xodimlarning malakasi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni to'g'ri tanlash va joy - joyiga qo'yish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qo'llanilayotgan usullar tizimini uzluksiz takomillashtirish va ta'lim - tarbiya jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi.

Ta'lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi va muvaffaqiyati ular o'quvchilar mustaqilligi va ijodiy faolligini rivojlantirishga qanchalik yordam berishiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarga mustaqillik ko'rsatish uchun sharoit yaratsa, o'quvchilar bilimlarini bamisoli o'zlari olayotgandek tuyulsa, mazkur metod samarali bo'ladi.

Pedagogik odobini egallash o'qituvchidan o'z ustida puxta, o'ylab ishlashni talab qiladi. O'qituvchi o'z hatti - harakatini doimo nazorat qilishi, qarashi, ishorasi bilan o'quvchilar hatti - harakatiga o'z munosabatini bildirib bilish kerak. Ya'ni pedagoglik odobi o'qituvchida o'z tuyg'ularini ifoda qilishning sof tashqi malakalari mavjud bo'lishini ham nazarda tutadi. Malakalarning bunday majmui pedagoglik mahoratning tarkibiy qismi bo'lib, u pedagoglik texnikasi deb ataladi. O'qituvchining pedagoglik mahorati, uning intellekti va madaniyatiga jiddiy e'tibor beriladi va bu o'rinda o'qituvchi o'z pedagoglik mahoratini, kasbga doir vazifalarni hal qilish qanchalik qo'ldan kelishini doimo tekshirib borishi, bola ongi hamda qalbiga eng yaxshi yo'llarni axtarishi talab etiladi. O'qituvchi o'quvchilarga o'z xatti - harakati, turmush tarzi, o'z qiyofasi va bilimi bilan ta'sir qiladi. Uning madaniyati, hakgo'yligi va ma'naviy sifatlari o'quvchilar tomonidan har xil tarzda qabul qilinadi. Shuning uchun ham o'qituvchi u qaysi fanni olib borishidan qat'iy nazar, o'quvchilar uchun ma'naviylik murabbiysi, taqlid uchun yuksak namuna, o'rnak bo'lishi kerak

O'qitish tizimida o'z - o'zini boshqarishning zarurligi, eng avvalo, butun o'quv yurtlari tizimining samarali, puxta ishlab chiqilganligidan dalolat beradi.

Chunki o'z - o'zini boshqarish tufayli o'qitishdagi o'zaro munosabat o'qitishning borishini jadal boshqarish va kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatish keyingi

darsga zamin va imkon yaratadi. O'z - o'zini boshqarishni biz mustaqil ish jarayonlarida turli xildagi tadbirlar uyushtirish va o'tkazishda, tarbiyaviy soat darslarida ko'rishimiz mumkin. O'z - o'zini boshqarish mohiyati o'quvchilarda birinchi o'rinda o'zini mustaqil his qilishi va o'zi ko'proq darsni qabul qilishidan iborat. Agar o'qituvchi o'quvchilarga ma'lum bir mavzuni o'zlashtirishga qiziqtirib borsa o'qituvchi mavqei nima bilan o'lchanishini bilamiz. Uning mavqei o'z kasbiga muhabbati, o'quvchilariga nisbatan talabchanligi, o'quv dasturi va darsliklardan to'g'ri foydalana bilishi, shuning bilan bir qatorda o'z ustida tinmay izlanib, o'z - o'zini tarbiyalashi bilan o'lchanadi. Kelajagimiz yoshlar qo'lida ekan biz o'qituvchilar ana shu yoshlarni chin inson bo'lib yetishishlari uchun qo'limizdan kelgan barcha mahoratimizni ishga solmog'imiz kerak. O'qituvchilik nihoyatda mas'uliyatli kasb, bu esa ko'proq o'z ustida ishlash, tajriba almashish, darsga tayyorgarlikni takomillashtirishga da'vat etadi. O'qituvchilarning o'z - o'zini tarbiyalashlarida matbuot sahifalari bilan tanishishi, ilg'or o'qituvchilarning tajribalariga suyanan holda dars tahlillarida qatnashishi, jamoadagi kasbdoshlari bilan uslub almashish yuqori samara beradi.

Tarbiyaviy jarayonni mustahkamlash, yaxshilash, uni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun deyarli barcha qoidalarni, usullarni, g'oyalarni qaytadan ko'rib chiqish, bola shaxsiga e'tiborni qaratish, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarur.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir - biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

O'quvchilar o'z ustilarida ishlash jarayonida ularning qobiliyati, iste'dodi rivojlanadi. Ularda o'tiladigan darslar, laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar, referat, konspekt yozish kabi ta'limiy faoliyat turlari o'zlari o'zlashtirishi zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi. Bu esa o'z ustida ishlashning muhim omili sanaladi.

O'z-o'zini nazorat qilish yosh o'qituvchi pedagogik qobiliyatining tezroq rivojlanishiga, tajribali pedagoglar mahorati "sirlari"ni tezroq egallashga imkon beradi. O'qituvchi o'z faoliyatini o'zi tahlil qilar ekan, u o'zini boshqarish va takomillashtirishning eng kuchli quroliga ega bo'ladi, muvaffaqiyatli ishlash usullarini egallaydi (diagnoz-prognoz). Bular esa o'qituvchida o'z mehnatidan qoniqish hosil qilish hislarini uyg'otadi, unga ma'naviy quvvat, ijodiy ishtiyoq (entuziazm) bag'ishlaydi.

O'qituvchi o'zini-o'zi axloqiy barkamollikka erishtirishga intilishi kasb faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishining muhim shartidir. Bunday turtkning

bo'lasligi ijodkorlikni pasayishiga, o'z kasbidan, hatto o'zidan ham norozilikni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'qituvchi o'zining darsini o'zi tahlil qilayotganda, quyidagilarga e'tibor berishi tavsiya etiladi:

- ko'zlangan maqsad va dars natijasini taqqoslash;
- o'quvchilar bilimi, ko'nikmasi va kamol topishidagi siljishlarni ko'zlangan natijaga muvofiqligini aniqlash;

- o'quvchilar darsda ishtiyoq bilan ishlaganliklariga alohida e'tibor berish.

O'qituvchilarning toifalari ham har xil, ilmiy dunyoqarashlari, tajribasi ham turlicha bo'ladi. Demak, yosh o'qituvchilar mana shu har xil toifa o'qituvchlarning tajribalaridan, uslublaridan unumli foydalanishlari mumkin. O'qituvchilarni esa quyidagicha toifalashtirish maqsadga muvofiq:

Ijodkor o'qituvchi o'z kasbini sevadi, qobiliyatli, mahorati yetarli, bilimdon, pedagogika va psixologiya fanlarining rivojiga hissa qo'shuvchi, o'quv dasturi, darsliklardan, ko'rgazmali qurollardan unumli foydalanish bilan birga ularni takomillashtirish uchun yangi fikrlar bildirib boradi. O'z tajribasi asosida maqolalar, metodik qo'llanmalar, darsliklar yozadi, ijod qiladi, o'ylanadi. Bunday o'qituvchilarning darsi namunali, o'quvchilari bilimli bo'ladi. Ularning darslarini kuzatuvchilar esa juda katta ma'naviy ozuqa oladilar hamda o'tilgan darslarni yuqori baholaydilar.

Tashabbuskor o'qituvchi - o'quv dasturi, darslik va metodik qo'llanmalarni talab darajasida amalga oshiradi. Ko'rgazmali qurollar yasaydi, texnik vositalaridan, ilg'or tajribalardan foydalanib, ularni hayotga tatbiq etishda tashabbus ko'rsatadi. Maktabdagi ta'lim- tarbiya ishlarida o'z tashabbusi bilan maktab rahbarligiga yordam beradi. U doimo izlanuvchan, yangiliklar yaratuvchi hisoblanadi.

Ilg'or o'qituvchi - o'qitish va tarbiyalash usullarini mukammal egallagan, dars jarayonida o'quv dasturi, darslik va metodik qo'llanmalarni to'liq amalga oshiradi. Darsga qo'yilgan talablar, uning maqsad va vazifasini namunali bajaradigan o'quvchilarga puxta bilim va tarbiya bera oladigan, bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, eng yaxshi natijalarga erishuvchidir. Dars vaqtni to'g'ri taqsimlovchi, bir daqiqa vaqtning qadriga yetuvchi, dars jarayonida o'quv dasturi qodalarini bajara oladigan qobiliyatga ega bo'ladi. Maktabning hamma ishlarida ilg'orlikka intiluvchan hisoblanadi.

Fidoyi o'qituvchi - kasbini sevgan, irodali, qiyinchiliklarga bardosh beradi, o'quvchilar bilan ishlash qobiliyatini mukammal egallagan. U hech qachon nolimaydi, hech kimni yomon demaydi, tinch osoyishtalik bilan o'tgan mazmunli kunlariga shukronalar aytadi. Bunday o'qituvchi o'quvchilarga namuna bo'ladi. Oddiy o'qituvchi madaniyati, ko'rinishi ham, o'quvchi va odamlar bilan muomalasi ham oddiy dars jarayonida o'quv dasturi, darslik mazmunini oddiy va sodda holda

tushuntirishga harakat qiluvchidir. Har qaysi o'quvchi mavzuni yaxshi tushunayapti deb ishonuvchan, darsda vaqti - vaqti bilan "Tushundingizmi?", "Yaxshi" so'zlarini ishlatuvchi, ishonuvchan shaxs. Ta'lim - tarbiya ishida kim nimani taklif etsa unga ishonib, bajarishga harakat qiluvchi, o'zicha biror bir yangilik haqida o'ylamaydi, yangicha takliflar aytmaydi, izlanmaydi, eshitgan o'zi ko'rgan tajribalar asosida dars o'tkazaveradi.

XULOSA

Insonning sog'lom va baquvvat bo'lib tarbiya topishida buyuk mutafakkirlarimizning o'g'itlari muhim o'rin kasb etadi. Jumladan, Alisher Navoiy o'qituvchining talabchan, xushmuomala bo'lishiga undagani, amma har ikkalasida ham ma'lum me'yorni bilish zarurligini uqtiradi. Tarbiya haqida gapirar ekan, "Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya xayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, shunga tarbiyangni nobud qilma" deydi. Alisher Navoiy tarbiyada insonning o'z - o'zini tarbiyalashga xato va kamchiliklarining anglab tuzatishga e'tibor beradi. Yangilish va yangilishni anglab ogohlangan kishi baxtli kishidir deydi. Navoiy ta'lim tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiyaviy jarayonlarni, vositalarni, talablarni ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylikka asoslangan, tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. U o'qituvchi haqida gapirar ekan, muallim o'z shogirdlarini ham o'zi ta'lim berayotgan fanni ham sevgan bo'lishi zarur deydi. O'ziga nisbatan ham, o'quvchiga nisbatan ham talabchan bo'lishni uqtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Коджаспирова Г.М. Теория и практика профессионального
2. Mahmudov N. M. O'qituvchining nutq madaniyati. Darslik. - T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. - 185 b. 47. Мудрик А.В. Введение в социальную педагогик}'. - М.: Ин-т практ. психологии, 1997.- 368 с.
3. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - T.: O'qituvchi, 1996. - 192 b.
4. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. - T.: O'qituvchi, 1995.
5. A.Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar 15-tom.- T.: "Fan" 2005.
6. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - T. . Istiqlol, 2003. - 176 b.
7. Ziyo.net